

**SPORTCHILARNI BAXTSIZ HODISALARDAN
SUG'URTA QILISH QOIDALARI****1. UMUMIY QOIDALAR**

Ushbu Sportchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilish qoidalar (keyingi o'rinlarda Qoidalar deb ataladi) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Umumiy sug'urta sohasining 1-sinfiga muvofiq ishlab chiqilgan va professional sport bilan shug'ullanish paytida jarohat olish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflardan sug'urta qilish shartlarini belgilaydi.

Ushbu Qoidalarining shartlariga ko'ra, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalangan shaxslarga sug'urta tovonini, Sug'urta qildiruvchi sug'urta tovonini to'lash majburiyatini olgan taqdirda, quyida ko'rsatilgan tartibda va hajmda to'lash majburiyatini oladi.

2. TA'RIFLAR

Ushbu Qoidalarda qo'llaniladigan atamalar quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- 2.1. Sug'urta polisi - Shartnoma tuzilganligini tasdiqlovchi va Sug'urta qildiruvchiga u sug'urta mukofotini to'laganidan keyin beriladigan hujjat.
- 2.2. Sug'urta summasi - Sug'urtalovchi majburiyatlarining cheklangan hajmini ifodalovchi pul mablag'lari summasi.
- 2.3. Sug'urta mukofoti - sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urtalovchiga to'lanadigan sug'urta haqi.
- 2.4. Sug'urtalangan shaxs (sportchi) - sport bilan professional shug'ullanuvchi, hayoti, sog'lig'i va kasbiy faoliyati bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta obyekti bo'lgan va foydasiga Sug'urta polisi rasmiylashtirilgan jismoniy shaxs.
- 2.5. Naf oluvchi - Sug'urta polisida Sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilan sug'urta to'lovini oluvchi sifatida ko'rsatilgan jismoniy shaxs. Naf oluvchini tayinlamagan sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari sug'urta tovonini oluvchilar deb e'tirof etiladi.
- 2.6. Sug'urta hodisasi - sug'urta davri davomida sport musobaqasi paytida sodir bo'lgan baxtsiz hodisa natijasida sug'urtalangan shaxsning jarohat olishi yoki vafot etishi, uning sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyati yuzaga keladi.
- 2.7. Baxtsiz hodisa - sug'urtalangan shaxsning xohish-irodasiga bog'liq bo'lmagan, to'satdan, qisqa muddatli, inson organizmiga tashqaridan ta'sir ko'rsatadigan va travmatik shikastlanish yoki o'limga olib keladigan hodisa.
- 2.8. Sug'urta to'lovi - sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalangan shaxsga/naf oluvchiga sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari.
- 2.9. Sug'urta davri - Sug'urta polisi amal qiladigan vaqt davri. Sug'urtalovchi sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davri davomida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

3. SUG'URTA QOPLAMASI

- 3.1. Ushbu Qoidalariga muvofiq sug'urtalangan shaxslarga sport musobaqalarida qatnashish vaqtida (agar alohida ko'rsatilmagan bo'lsa) sodir bo'lgan va quyidagilarga olib kelgan baxtsiz hodisalardan sug'urta himoyasi taqdim etiladi:
 - 3.1.1. Sug'urtalangan shaxsning travmatik jarohatlari;
 - 3.1.2. Sug'urtalangan shaxsning o'limi.
- 3.2. 3.1.2.-bandda nazarda tutilgan baxtsiz hodisa oqibatlari, baxtsiz hodisa yuz bergan kundan boshlab olti oy ichida yuz bergan bo'lsa, ushbu sug'urta bilan qoplanadi, ammo baxtsiz hodisa sug'urta davrida yuz bergan bo'lsa.

4. UMUMIY ISTISNOLAR

- 4.1. Ushbu Qoidalariga muvofiq quyidagilar oqibatida sodir bo'lgan hodisalar sug'urta hodisasi deb e'tirof etilmaydi:
 - a) har qanday turdagi harbiy harakatlar yoki harbiy tadbirlar va ularning oqibatlari, xalq g'alayonlari va ish tashlashlari, harbiylarning hokimiyatni bosib olishi yoki hokimiyatni qonunga xilof ravishda bosib olishi, bir guruh yovuz niyatli kishilarning yoki siyosiy tashkilotlar topshirig'i bilan harakat qilayotgan yoxud ular bilan hamkorlik qilayotgan shaxslarning harakatlari, fitna;
 - b) yadroviy portlash, radiatsiya va radioaktiv zararlanish;
 - v) Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsning sug'urta hodisasi yuz berishiga qaratilgan qasddan qilingan harakatlari va/yoki harakatsizligi, ular tomonidan o'z fuqarolik burchini bajarish yoki Sug'urta qildiruvchi, Sug'urtalangan shaxs yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'liq harakatlar bundan mustasno;
 - g) doping qo'llanilganligi isbotlangan bo'lsa;
 - d) baxtsiz hodisa yuz bergan paytda sug'urtalangan shaxs alkogolli ichimlikdan, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mast holatda bo'lganda.
- 4.2. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ham sug'urta to'lovidan ozod qilinadi.

5. SUG'URTA SUMMASI VA SUG'URTA MUKOFOTI

- 5.1. Ushbu Qoidalariga ko'ra, sug'urta summasi va sug'urta mukofoti miqdorlari Sug'urtalovchi tomonidan ushbu sug'urta turi bo'yicha tasdiqlangan tariflarga muvofiq belgilanadi va Polisda ko'rsatiladi.
- 5.2. Quyidagilar sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi:

- a) sug'urta mukofoti sug'urtalovchining vakolatli vakiliga berilgan kun yoki sug'urta mukofoti naqd pul mablag'lari bilan to'langan taqdirda sug'urtalovchining bankdagi hisob raqamiga o'tkazilgan sana;
- b) sug'urtalovchining bank hisob raqamiga pul mablag'lari o'tkazilgan sana
- 5.3. Ushbu Shartnoma bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblari O'zbekiston Respublikasi so'mida amalga oshiriladi.

6. SUG'URTA DAVRI, SUG'URTA POLISINING AMAL QILISH MUDDATI

- 6.1. Sug'urta davri Sug'urta polisida ko'rsatilgan vaqt oralig'ida belgilanadi.
- 6.2. Polis unda ko'rsatilgan sug'urta davrida amal qiladi.

7. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Ushbu Qoidalar muvofiq:

7.1.1. Sug'urtalangan shaxs quyidagi huquqlarga ega:

- a) Sug'urta polisini rasmiylashtirishda o'z xohishiga ko'ra Naf oluvchini ko'rsatish;
- b) sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchidan uning foydasiga rasmiylashtirilgan Polis bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish;
- v) Sug'urtalovchidan Polisning amal qilish davrida sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar olish;
- g) Polis yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish.

7.1.2. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- a) sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi tomonidan sug'urta to'lovi to'g'risida talab qo'yilganda, sug'urtalangan shaxs/naf oluvchidan ushbu Qoidalar muvofiq majburiyatlarni, shu jumladan sug'urta qildiruvchining zimmasida bo'lgan, lekin u tomonidan bajarilmagan majburiyatlarni bajarishni talab qilish. Ilgari bajarilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik oqibatlari xavfi sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi zimmasida bo'ladi;
- b) Sug'urtalanuvchi Sug'urtalovchiga bila turib yolg'on ma'lumotlar berganligi Sug'urta polisi rasmiylashtirilgandan keyin aniqlangan taqdirda Sug'urta polisini haqiqiy emas deb topishni va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan oqibatlarni qo'llashni talab qilish.

Agar sug'urta qildiruvchi sukut saqlagan holatlar allaqachon barham topgan bo'lsa, sug'urtalovchi sug'urta polisini haqiqiy emas deb topishni talab qila olmaydi;

- v) jabrlangan sug'urtalangan shaxsning ahvolini tekshirish va kasallik tarixini o'rganish uchun o'zining ishonchli shifokor-ekspertini yuborish;
- g) sug'urta qildiruvchi ushbu Qoidalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda to'lovni rad etish;

7.1.3. Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

- a) Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta polisini belgilangan muddatlarda berish;
- b) barcha zarur hujjatlar olingandan va sug'urta hodisasi yuz berganligi fakti tan olingandan keyin ushbu Qoidalar ko'rsatilgan tartibda va muddatlarda sug'urta to'lovini amalga oshirish;
- v) sug'urta qildiruvchiga uning so'roviga ko'ra sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlar berish;
- g) Polisning amal qilish davrida Sug'urtalanuvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat organlariga ma'lumot taqdim etishi shart bo'lgan hollar bundan mustasno.

7.1.4. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- a) so'rov bo'yicha Sug'urtalovchining sug'urta masalalari bo'yicha maslahatlarini olish;
- b) sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olish.

7.1.5. Sug'urta qildiruvchi quyidagilarga majbur:

- a) Polisni rasmiylashtirishda Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha ma'lum holatlar to'g'risida xabar berish;
- b) sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash;
- g) Sug'urtalangan shaxsni va Naf oluvchini ushbu Qoidalar bo'yicha ularning huquq va majburiyatlari bilan tanishtirish.

8. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH

8.1. Ushbu Qoidalar doirasida sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha talabni asoslashi mumkin bo'lgan hodisa yuz berganda Sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi quyidagilarga majbur:

- hodisa sodir bo'lganidan keyin 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Sug'urtalovchiga sodir bo'lgan hodisaning sabablari va holatlarini ko'rsatgan holda yozma ariza yuborish.

8.2. Sug'urta da'vosini ko'rib chiqish uchun Sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:

8.2.1. Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga travmatik shikast yetkazilganda va/yoki uning sog'lig'i boshqacha tarzda buzilganda:

- a) sug'urta polisining asl nusxasi yoki nusxasi;
- b) shaxsni tasdiqlovchi hujjat;
- v) Tibbiyot muassasasining 195-shakldagi ma'lumotnomasi;
- g) baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma;

8.2.2. Sug'urtalangan shaxsning sog'lig'iga (nogironligiga) doimiy zarar yetkazilganda:

8.2.1-band bo'yicha qo'shimcha ilgari ilova qilingan hujjat bilan nogironlik darajasini ko'rsatgan holda TMEK xulosasini Jamiyatga ilova qiladi;

8.2.3. Sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda, Sug'urta polisida Naf oluvchi mavjud bo'lganda:

a) sug'urta polisining asl nusxasi;

b) Naf oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

v) o'lim haqidagi guvohnomaning nusxasi;

g) baxtsiz hodisa to'g'risidagi dalolatnoma.

d) agar Polisda Naf oluvchi ko'rsatilmagan bo'lsa, u tomonidan Sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari tayinlanadi, ular bo'lmagan taqdirda Naf oluvchi Sug'urtalanuvchi hisoblanadi.

8.3. Sug'urtalovchi ushbu hodisaga tegishli barcha holatlarni o'rganib chiqqandan so'ng, sodir bo'lgan hodisani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror chiqaradi.

Sug'urtalovchining qaroridan norozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi da'voni hal qilish uchun mustaqil ekspert tayinlanishini talab qilishi mumkin.

8.4. Agar sug'urta hodisasi yuz berganligi fakti bo'yicha jinoiy ish yoki fuqarolik ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi tegishli summalarni to'lash to'g'risidagi masalani hal qilishni vakolatli organlar tomonidan tegishli qaror qabul qilingunga qadar kechiktirish huquqiga ega.

9. SUG'URTA TO'LOVINI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

9.1. Ushbu Qoidalar bilan qoplanadigan baxtsiz hodisa tufayli sug'urtalangan shaxs mehnat qobiliyatini vaqtincha yo'qotganda, sug'urta to'lovi to'lovlar jadvali bo'yicha, biroq shaxsiy sug'urta summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi, agar olingan jarohatlar to'lovlar jadvalida tavsiflanmagan bo'lsa, sug'urta to'lovlari mehnatga layoqatsizlikning har bir kuni uchun shaxsiy sug'urta summasining 0,5 foizi hisobidan amalga oshiriladi va 90 (to'qson) kundan ko'p bo'lmagan davr uchun amalga oshiriladi.

9.2. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz bergan kundan boshlab olti oy mobaynida sug'urtalangan shaxsga nogironlik guruhi belgilanganda, sug'urta to'lovi ushbu Qoidalarining 3.1.1-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi munosabati bilan ilgari to'langan summalarni hisobga olgan holda, biroq shaxsiy sug'urta summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- sug'urtalangan shaxs I guruh nogironligi belgilanganda - shaxsiy sug'urta summasining 100 foizi;

- sug'urtalangan shaxs II guruh nogironligi belgilangan taqdirda - shaxsiy sug'urta summasining 80 foizi;

- sug'urtalangan shaxs III guruh nogironlik belgilanganda - shaxsiy sug'urta summasining 60 foizi miqdorida.

9.3. Sug'urta polisining amal qilish davrida sug'urtalangan shaxsga yuqoriroq nogironlik guruhi belgilangan taqdirda, sug'urta to'lovi ushbu Qoidalarining 3.1.2-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi munosabati bilan ilgari to'langan summalarni hisobga olgan holda, biroq Sug'urta polisida ko'rsatilgan shaxsiy sug'urta summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

9.4. Sug'urtalangan shaxs vafot etgan taqdirda sug'urta to'lovi miqdori Polisda ko'rsatilgan sug'urtalangan shaxs uchun belgilangan shaxsiy sug'urta summasining 100 foizini tashkil etadi. Sug'urta to'lovi Naf oluvchiga to'lanadi.

9.5. Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta davri mobaynida ayni bir Sug'urtalangan shaxs bilan sodir bo'lgan bir yoki bir necha sug'urta hodisalari bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarining umumiy summasi uning Sug'urta polisida ko'rsatilgan shaxsiy sug'urta summasidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

9.6. Sug'urta to'lovi Sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan va Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi yuz berganligi tan olingan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini rad etish to'g'risidagi qarori sug'urtalangan shaxs/naf oluvchi sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan holda sug'urta to'lovini olish uchun murojaat qilganidan keyin 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asosli sabablarini o'z ichiga olishi kerak.

10. SUG'URTA POLISINI BEKOR QILISH VA TO'XTATISH

10.1. Agar sug'urta polisi kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasining yuz berish ehtimoli yo'qolgan va sug'urta xavfining mavjudligi sug'urta hodisasidan boshqa holatlarga ko'ra to'xtagan bo'lsa, sug'urta polisi u tuzilgan muddatgacha bekor qilinadi.

10.2. Ushbu Qoidalarining 10.1-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha Sug'urta polisi muddatidan oldin bekor qilinganda, sug'urtalovchi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda sug'urta mukofotining bir qismini olish huquqiga ega.

10.3. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), agar rad etish paytiga kelib ushbu sug'urta shartnomasining 10.1-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha sug'urta hodisasining yuz berish imkoniyati yo'qolmagan bo'lsa, istalgan vaqtda Sug'urta polisidan voz kechishga haqli.

Bu holda (sug'urta qildiruvchi yoki naf oluvchi sug'urta shartnomasidan muddatidan oldin voz kechganda) sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

11. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

11.2. Sug'urta to'lovi kechiktirilganligi uchun Sug'urtalovchi kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,2 foizi miqdorida, biroq Sug'urta polisi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penya to'lash sug'urtalovchini sug'urta to'lovini amalga oshirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

11.3. Sug'urta polisi bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni bajarishdan asossiz ravishda to'liq yoki qisman bosh tortganlik uchun o'z majburiyatlarini buzgan tomon boshqa tomonga o'zi to'lashdan bosh tortgan yoki bo'yin tovlagan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

11.4. Tomonlar ushbu Qoidalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik yengib bo'lmas kuch (fors-major) holatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladilar. Yengib bo'lmas kuch holatlari ta'siriga duchor bo'lgan taraf mazkur holatlar yuzaga kelganligi va ularning amal qilishi mumkin bo'lgan muddat to'g'risida ikkinchi tarafni darhol xabardor qilishi shart.

12. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilgan yoki u bilan bog'liq masalalar bo'yicha nizolar, talablar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralarini ko'radilar.

12.2. Ushbu Shartnomadan yoki u bilan bog'liq holda yuzaga keladigan nizolar, kelishmovchiliklar yoki talablarni, shu jumladan uni bajarish, buzish, to'xtatish yoki haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmaganda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak.